



Bolalar ombudsmani Parlament nazoratini amalga oshiradi

2-betda o'qing



Tibbiyot xodimlarining murojaati o'rganildi

3-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
12-MART
SESHANBA

№ 10
(1422)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz telegram.me/hudud24official/ facebook.com/hudud24official/

Xotin-qizlar uchun muhim imtiyozlar



Lobar ROZIMOVA,
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi
mas'ul xodimi

TADBIRKORLIK UCHUN IMTIYOZLI KREDIT BERILADI

Xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga
qo'yish uchun Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash
davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan 3 yilga-
cha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz
stavkada 33 million so'mgacha kreditlar ajratiladi.

"AYOLLAR DAFTARI" ORQALI XOTIN-QIZLARGA 10 DAN ORTIQ YORDAM KO'RSATILADI

Xususan, "Ayollar daftari"ga kiritilgan va tadbir-
korlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan xotin-
qizlarga BHMning 150 baravarigacha miqdorda
kredit ajratiladi.

O'QISH XARAJATLARI QOPLAB BERILADI

Xotin-qizlar nodavlat ta'lim tashkilotla-
rida kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qiganda qil-
gan xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga
1 million so'mdan ortiq bo'lmagan xarajatlar davlat
tomonidan qoplab beriladi.



DAVLAT XIZMATIGA KIRISHDA XOTIN-QIZLAR UCHUN TENG SHAROIT YARATILADI

Davlat xizmatidagi lavozimlarni, shu jumladan
rahbarlik lavozimlarini egallash uchun tanlovda
xotin-qizlar va erkaklarning teng ravishda ishtirok
etishi ta'minlanishi kerak.

Davlat organlarining kadrlar xizmatlari zim-
masiga tanlov komissiyalariga nafaqat tanlovda
ishtirok etayotgan shaxslarning ma'lumoti va
kasbiy tayyorgarligi to'g'risidagi ma'lumotlarni,
balki davlat xizmatining tegishli lavozimlarida
ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nis-
bati to'g'risidagi ma'lumotlarni ham taqdim etish
majburiyati yuklatiladi.



HOMILADORLIGI UCHUN ISHGA QABUL QILMASLIK JAVOBGARLIKKA SABAB BO'LADI

Homiladorligi yoki farzandi borligi bilan bog'liq
sabablarga ko'ra ishga qabul qilishni rad etish
yoki mehnatga haq to'lash miqdorini kamaytirish
taqiqlanadi.

Ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani
parvarish qilayotganini bila turib, uni ishga olishdan
g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan
bo'shatish, BHMning 25 baravarigacha miqdor-
da jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan
mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish
ishlari bilan jazolanadi.

Bundan tashqari, xotin-qizlarga mehnat qilish
bilan bog'liq 10 dan ortiq imtiyozlar belgilangan.



AYOLLAR BEPUL ADVOKAT BILAN TA'MINLANADI

Erkak va ayollar huquqlari tengligining
buzilishi bilan bog'liq ishlarining sudlarda ko'rib
chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko'rsa-
tiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishi-
ga ko'ra davlat hisobidan qoplanadi.



AYRIM XOTIN-QIZLARNING KONTRAKTI TO'LAB BERILADI

Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim
yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan
xotin-qizlar davlat OTMlari bakalavr bosqichi-
da kontrakt asosida o'qiganida ularning kontrakt
to'lovlari hokimliklar tomonidan to'lab beriladi.



KONTRAKT PULI BUDJETDAN TO'LANADI

Davlat OTMlarida o'qiyotgan xotin-
qizlar uchun magistratura bosqichiga kontraktning
to'liq summasi budjetdan qoplab beriladi. Buning
uchun har yili xotin-qizlar rektor nomiga 15 sen-
tabrgacha ariza berishi kerak.



4-betda o'qing

Yosh bolali ayollarning ish soati qisqartirilishi mumkinmi?



5-betda o'qing

Huquqshunos zahmati



6-betda o'qing

Firibgarlar

Ancha paytdan buyon tadbirkorlik faoliyati bilan
shug'ullanib kelayotgan andijonlik hamyurtimiz
Dilshodbek Nishonov (ism-shariflar o'zgar-
tirilgan) yangi noturar joy olib, o'z ishlarini
rivojlantirmoqchi bo'ladi. Bundan xabar topgan,
Izboskan tumanida yashovchi, muqaddam
firibgarlik jinoyatini sodir etib sudlangan bo'lsa-
da, lekin ko'zi ochilmagan Pathiddin Bayramov
va uning hamtovog'i Anvar Maxsudovlar nima
qilib bo'lmasin, Dilshodbekning pullarini qo'lga
kiritish payiga tushishadi...

2 JARAYON

□ Bugungi kunda dunyoning saksonga yaqin mamlakatlarida Bolalar ombudsmani faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi “Bola huquqlari to’g’risida”gi konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha’ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoyasiga butun jamiyat hamda davlatni faol jalb etishdan iborat.



BOLALAR OMBUSDMANI PARLAMENT NAZORATINI AMALGA OSHIRADI

Ta’kidlash joizki, davlatlarning bola huquqlarini himoya qilishni ta’minlash funksiyasi Bola huquqlari bo’yicha vakil faoliyatida aks etadi. 2024-yil 29-fevral kuni “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo’yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to’g’risida”gi qonun qabul qilinib, kuchga kirdi.

Albatta, Bosh qomusimizda bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlangan. Yangi qonun ana shu konstitutsiyaviy qoidalarning to’laqonli ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Unga ko’ra, bola huquqlari bo’yicha vakil (Bolalar ombudsmani) mansabdor shaxs bo’lib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari to’g’risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Bola huquqlari bo’yicha vakil o’z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdordir. U ikkala palata tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

Vakil mansabdor shaxslarga bola huquqlari to’g’risidagi qonunchilikning buzilishiga yo’l qo’yilmasligi haqida ogohlantirishlar yuborish, davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning rahbarlariga bola huquqlari to’g’risidagi qonunchilik buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko’rib chiqilishi majburiy bo’lgan taqdimnomalar kiritish, harakatlari yoki harakatsizligida bola huquqlari buzilgan aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to’g’risida tegishli organlarga iltimosnomalar kiritish huquqiga ega.

Bola huquqlari bo’yicha vakil bolaga nisbatan qiy-noqqa solish va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo’llashning oldini olish bo’yicha choralar ko’rishi lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga e’tibor qaratsak, Norvegiyada 1982-yilda bolalar huquqlari bo’yicha Ombudsman vakili lavozimi birinchi bo’lib ta’sis etilgan. Shvetsiyada esa bunday institut 1993-yilda faoliyat boshlagan. Ayni paytda Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Lyuksemburg, Rossiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Gvatemala, Kolumbiya, Kosta-Rika, Peru, shuningdek Kanada, Isroil va Yangi Zelandiyada Bolalar Ombudsmani faoliyat ko’rsatmoqda.

Mamlakatimizda Bolalar ombudsmani institutining yaratilishi BMTning Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyasi bo’yicha o’z majburiyatlarini nechog’lik to’laqonli bajarilayotgani ifodasidir.

Faringiz YUSUPOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti o’qituvchisi

□ Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan yoshlar masalasiga alohida e’tibor berilib, bu borada har bir hududda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Boshqarma boshlig’ining buyrug’iga asosan mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo’yicha viloyat va tuman (shahar) darajasidagi 10 ta hududiy shtablar tashkil qilindi.



YOSHLAR MUAMMOLARI – adliya nigohida

Yoshlarni otaliqqa olish va yoshlarning muammolarini o’rganish maqsadida ular bilan manzilli ishlash tizimini tashkil qilish yuzasidan chora-tadbirlar asosida mahallalar kesimida uyma-uy yurgan holda xatlov o’tkazildi. Shundagina tizim xodimlari uchun haqiqiy manzara ayon bo’ldi, og’riqli nuqtalar aniqlandi va muammolar dinamikasini kuzatish imkoni tug’ildi.

“**Ayni kunda viloyat bo’yicha adliya idoralariga 42 ta mahalla biriktirilgan bo’lib, undagi 17 ming 221 nafar yoshlarning muammo va masalasini o’rganishga 84 nafar xodim mas’ul. Shulardan og’ir toifadagi yoshlar soni – 207 nafar, jinoyatchilikni ixtiyor etishga muqilligi mavjud bo’lgan yoshlar soni – 123 nafar, respublikadan tashqaridagi, ya’ni migratsiyadagi yoshlar soni – 438 nafarni tashkil etmoqda. Shulardan 228 nafari ishsiz. Adliya xodimlari tomonidan aniqlangan muammolar bo’yicha barcha hududlarda qo’l xaritalari ishlab chiqildi.**

Xatlov natijalaridan ma’lum bo’ldiki, 87 nafar yoshlarning o’z muammolari mavjud. Ular iqtisodiy va ijtimoiy yordamga muhtoj. Masalan, 22 nafar yigit-qizni ishga joylashtirish zarur, 2 nafariga kasb-hunar o’rgatish, 8 nafariga subsidiya ajratish, 6 nafariga kredit va yer ajratish, 2 nafarini fan to’garaklariga joylashtirish zarur, 4 nafarining davolanish va psixologik ko’makka ehtiyoji bor. 37 nafari boshqa masalalarda muammosi borligini bildirdi. Tizim rahbariyati va xodimlarining sa’y-harakatlari natijasida ko’plab yoshlarning muammolariga ijobiy yechim topildi.

“

Adliya bo’limi tashabbusi bilan kimgadir yo’qotilgan nikohni qayd etish guvohnomasi bepul olib berildi, kimgadir qosh manfaatida nikohni bekor qilish bo’yicha sudga da’vo arizasi kiritildi, yana biroviga javobgardan aliment undirish yuzasidan sudga ariza kiritildi. Bir guruh yoshlar ish bilan band qilindi va bir guruh yigit-qizlar kasb-hunarga o’qitish bo’yicha o’quv markazlariga joylashtirildi.

Xususan, Xatirchi tumanining “Qo’shchinor” mahallasida yashovchi 25 yoshli Z. Karomiddinov xatlov jarayonida ishsizligi bo’yicha adliya xodimlariga murojaat qilgandi. 2024-yil 20-fevraldan avtomashinalarni yuvish xizmati bilan shug’ullanuvchi xususiy korxonada ish boshladi. Karmana tumanida yashovchi 17 yoshli J. Karimov oilaviy muammolari sabab o’qishini tashlab ketishga majbur bo’lgandi. Uning murojaati ham inobatga olinib, Karmana kasb-hunar maktabiga o’qishini qayta tiklashga muvaffaq bo’ldi. Karmana tumanining “Ziyokor” mahallasida yashovchi 2-guruh nogironi paraolimpiada bo’yicha Osiyo chempionati sovrindori J. Akobirovning muammosi ham uyiga borib o’rganildi. Uning oilada yolg’iz onasi bilan yashayotgani inobatga olinib, oshxona qurilishiga moliyaviy ko’mak beriladigan bo’ldi.

Konimex tumanining “Do’stlik” mahallasida yashovchi E. Dusenbayev ham sog’ligida, aniqrog’i, yuragida nuqsoni borligi uchun og’ir yumush bajara olmasligi tufayli ishsiz ekani haqida murojaat qoldirgan edi. U shifokorlarning tibbiy xulosalari asosida, tumandagi 22-sonli umumta’lim maktabiga obodonlashtirish yumushlariga ishga qabul qilindi.


Navoiy shahrining “Bunyodkor” mahallasida yashovchi G. Jamolovaga ota-onasidan meros qolgan uyga egalik huquqini olishi uchun huquqiy va amaliy ko’mak berildi. “Tinchlik” mahallasidan M. N.ning oila qurishga layoqatsizligi, ruhiy betobliligi sud orqali aniqlanib, nikohi bekor qilinishiga amaliy yordam ko’rsatildi.



Bundan tashqari, haftaning har chorshanba kuni yoshlarning huquqiy bilimini oshirishga, ayniqsa, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan “Huquqiy axborot kuni” loyihasi – amalda. Shuningdek, adliya boshqarmasi tashabbusi bilan “Ziyo ulash” aksiyasi doirasida Navbahor tuman, “Qorovultepa” mahallasida hamda Tomdi tuman, “Aqtov” ovul fuqarolar yig’inida kutubxonalar tashkil etildi. Biriktirilgan mahalla fuqarolar yig’ini va taxminiy yoshlar soni haqidagi ma’lumotlar aks ettirilgan planshet shakllantirildi. Aniqlangan og’ir toifadagi 207 nafar, jinoyatchilikka moyil 123 nafar yoshlar bilan uchrashib, so’rovnoma (anketalar) to’ldirildi. Migratsiyada yurgan yoshlarning har biri bilan mobil aloqa orqali muloqotlar uyushtirildi. Darvoqe, xatlov jarayonida aniqlangan fakt shu bo’ldiki, yoshlarning 80 foizi o’z uyini, yaqinlarini tashlab ketishni istamaydi. Xulosa o’rnida aytadigan bo’lsak, yoshlarga e’tibor – kelajakka e’tibor ekani amalda o’z ifodasini topmoqda.

Zafar FARMONOV,
Navoiy viloyat adliya boshqarmasi boshlig’i
birinchi o’rinbosari

ADLIYA ODAMLAR ORASIDA 3



QAROR BEKOR QILINDI

Sirdaryo tumanidagi "Intilish" mahallasida yashovchi fuqaro U. Kazakov tuman hokimligi qaroridan norozi bo'lib, adliya bo'limiga murojaat qildi.

Ma'lum qilinishicha, Sirdaryo tuman hokimining 2016-yildagi tegishli qarori bilan "Malik" qishloq fuqarolar yig'ini "Intilish" mahallasi aholi punkti hududida bo'lgan zaxiradagi yerlar 0,04 gektardan auksion orqali sotuvga chiqarilgan. U. Kazakov "Intilish" mahallasi hududida bo'lgan 248-konturdagi 5-sonli yer uchastkasini auksion savdosida yutib olgan. Biroq, fuqaro ma'lum sabablarga ko'ra, yutib olgan yerni davlat ro'yxatidan o'tkazmagan.

Mazkur murojaatni o'rganish davomida tuman hokimining 2021-yil 5-iyundagi qarori bilan bo'sh turgan jami 0.5847 gektar yer maydoni hokimiyat zaxirasiga olingani, shundan U. Kazakovga tegishli bo'lgan 0.04 gektar yer maydoni ham tuman hokimligi zaxirasiga o'tgani aniqlandi.

Konstitutsiyamizning 65-moddasida qayd etilganidek, xususiy mulk daxsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollar-

dan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas.

Shuningdek, Yer kodeksining 36-moddasida mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ochiq tanlov va elektron onlayn-auksion yakunlari to'g'risidagi bayonnomani bekor qilish yoki o'zgartirish yo'li bilan bekor qilishga haqli emasligi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaro manfaatida sudga da'vo arizasi kiritilib, sudning hal qiluv qarori bilan tuman hokimining U. Kazakovga tegishli bo'lgan 0.4 ga yer maydonini zaxiraga olish to'g'risidagi qarori bekor qilindi.

Kamoliddin ERNAZAROV,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi boshlig'i

Sariosiyo tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli "Xonjiza" hududiy bo'limi tibbiyot xodimlari tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi qarorida belgilangan ustama pullarini undirishni so'ragan.

TIBBIYOT XODIMLARINING MUROJAATI O'RGANILDI



O'rganish davomida, tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'ining buyrug'i bilan birlashmaga qarashli "Xonjiza" hududiy bo'limiga 20 nafar tibbiy xodim turli vazifalarga ishga qabul qilingani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan "Tabiiy-iqlim va maishiy sharoitlari og'ir va noqulay bo'lgan joylarda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lashga tuman koeffitsiyentlarini, ularga har yili beriladigan qo'shimcha ta'tilning eng kam muddatini belgilash va qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan

belgilangan ustama pullari 2022-yilda to'langan bo'lsa-da, 2019-yil sentabr oyidan 2022-yil iyun oyiga qadar to'lanmagani aniqlandi.

Tuman tibbiyot birlashmasining 2024-yil 18-yanvardagi ma'lumotnomasiga ko'ra, tibbiyot birlashmasiga qarashli "Xonjiza" hududiy bo'linma tibbiyot xodimlariga hukumat qarorida belgilangan ustama pullari 2019 va 2022-yilning xarajatlar smetasida tumandagi baland tog'li hududlarda ishlaganlik uchun barcha iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning xodimlari uchun mablag' ajratilmagani sababli to'lov amalga oshirilmaganini ma'lum qilgan.

Surxondaryo viloyat Gidrometeorologiya boshqarmasining 2023-yil 21-maydagi xati bilan taqdim qilingan xulosasida Sariosiyo tuman "Xonjiza" mahallasi dengiz sathidan 1 ming 619 metr balandlikda joylashgani ko'rsatilgan.

Hukumat qaroriga binoan tabiiy-iqlim sharoitlari og'ir va noqulay bo'lgan joylar ro'yxatida baland tog'li tumanlarda ishlaganlik uchun barcha iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning xodimlari uchun dengiz sathidan 1 ming 500 metrdan 1 ming 700 metrgacha balandlikda mehnatga haq to'lashga tuman koeffitsiyentlari bo'yicha ustama miqdori 10 foiz qilib belgilangan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan "Xonjiza" hududiy bo'limi tibbiyot xodimlari manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Sariosiyo tumanlararo sudiga da'vo arizalari kiritilib, belgilangan tartibda ustama mablag'i undirib berildi.

Xurshid SHARIPOV,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga ustama to'lash ahvoli monitoring qilish orqali o'rganilganda, xodimlarga har oylik ustama haqi lozim darajada to'lanmasdan kelinayotgani aniqlandi.



Ustamasiz qolgan ustozlar

Xususan, Kattaqo'rg'on tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida zamonaviy axborot texnologiyalari hamda kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodim E.I. 2019-yil 1-noyabrda buyruq asosida ishga qabul qilingan bo'lib, unga 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 31-dekabr gacha bo'lgan davrda jami 58 million 808 ming 589 so'm ustama puli to'lab berilmagani aniqlandi. Xuddi shu kabi holat ushbu tashkilotning boshqa xodimlari bilan ham takrorlangan. Xususan, M.Sh. 72 million 513 ming 181 so'm, N.K. esa 19 million 365 ming 884 so'm ustama pulini ololmay kelgan.

Qonunchilikka binoan, 2018-yil 1-iyundan ushbu soha xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat budgetidan, davlat budgetidan ajratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda berilishi, shuningdek, davlat budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ixtisoslashtirilgan bo'linmalarining shtatdagi xodimlariga ustamalar xodim lavozim maoshining kamida 100 foizi miqdorda belgilanishi zarur.

Qayd etish joizki, 2023-yil davomida olib borilgan monitoringlar natijasi viloyatdagi birgina tibbiyot birlashmalari va MMTBda ishlayotgan mazkur soha xodimlariga jami 576 million 784 ming 916 so'm ustama pullari to'lanmagani ko'rsatdi. Jumladan, tuman tibbiyot birlashmalari tomonidan 26 million 516 ming 465 so'm, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan 442 million 341 ming 298 so'm ustama pullari ushlab qolingan.

Mazkur holatlar yuzasidan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlar rahbariyatiga taqdimnomalar kiritildi.

Masharif ABDUG'ANIYEV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

KOMPENSATSIYA TO'LANMAGAN



Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Namangan shahar, "Dambog'" mahallasida yashovchi fuqaro O. B.ning shahar hokimining tegishli qarori bilan buzilgan "Uychi" ko'chasida joylashgan "Savdo do'koni" bino-inshootlari uchun kompensatsiya pulini undirishni so'rab qilgan murojaati o'rganib chiqildi.

Ma'lum bo'lishicha, viloyatning yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish, shuningdek, magistral ko'chalar bo'yicha zamonaviy obyektlar qurish, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish asosida shaharning markaziy qiyofasini arxitektura talablari asosida tubdan yangilash yuzasidan Vazirlar Mahkamasi hamda viloyat hokimining tegishli farmoyishlariga asosan "Uychi" ko'chasida obodonlashtirish ishlari olib borilishi munosabati bilan turar va noturar joy obyektlarining buzilishi paytida shahar hokimining qaroriga asosan, "Uychi" ko'chasida joylashgan savdo do'koni bino-inshootlari buzib tashlangan. Biroq, murojaat egasiga kompensatsiya puli to'lab berilmagan.

Murojaat atroflicha o'rganilib, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish munosabati bilan yetkazilgan zararni, ya'ni baholash hisobotidagi 466 million 186 ming 939 so'm miqdoridagi kompensatsiya pulini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va murojaat ijobiy hal etildi.

Dilshodbek ABDULLAYEV,

Namangan viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

4 "MADAD" – MASLAHATCHI



YOSH BOLALI AYOLLARNING ISH SOATI QISQARTIRILISHI MUMKINMI?

– Davlat tashkilotlarining birida xodim bo'lib ishlayman. Ikki yoshdan oshgan farzandim bor. Yosh bolali ayollarga ish soati bo'yicha imtiyozlar bormi?

Manzura MAHMUDOVA

– Mehnat kodeksining 397-moddasida uch yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan birining (vasiysining) qisqartirilgan ish vaqti davomiyligiga bo'lgan huquqi belgilangan. Unga ko'ra, 3 yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ota-onasidan biriga (vasiysiga) haftasiga 35 soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi.

Ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida ish haqi ushbu xodim uchun mehnatga haq to'lash har kungi to'liq ish davomiyligida ishlaydigan xodimlarga nisbatan belgilangan miqdorda amalga oshiriladi. Uch yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtirilmaydigan ish beruvchilarda ishlaydigan ota-onasidan biriga, vasiysiga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida yoki ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda qabul qilinadigan ichki hujjatlarda belgilanishi mumkin.



SUD DA'VO ARIZANI QABUL QILMASLIGI MUMKINMI?

– Oilaviy kelishmovchiliklar sababli oilam bilan birga yashamaymiz. O'rtamizda ikki nafar farzandimiz bor. Eng kichigi ikki oylik chaqaloq. Turmush o'rtog'im qonuniy nikohimizni bekor qilmoqchi. Sudga murojaat qilsa, sud da'vo arizani qabul qilmay, rad qilibdi. Shu qonundan to'g'rimi?

Zebo HAYDAROVA

– Oila kodeksining 39-moddasiga ko'ra, erning nikohdan ajratish to'g'risida talab qo'yishini man etadigan holatlar belgilangan. Unga ko'ra, xotining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er xotining roziligisiz nikohdan ajratish to'g'risida ish qo'zg'atishga haqli emas.

MEHNATGA LAYOQATSIZLIK TA'TILI DAVRIDA OYLIK TO'LANADIMI?

– Davlat tashkilotida ishlayman. Uch nafar voyaga yetmagan farzandim bor. Hozirda sog'lig'im sababli mehnatga layoqatsizlik ta'tiliga chiqqanman. Menga oylik ish haqi qanday to'lab beriladi?

Shahnoza OLIMOVA

– Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'i nazar, ish haqining 100 foizi miqdorida quyidagilarga to'lanadi: ishlayotgan, 1941-1945-yillardagi urush qatnashchilariga; baynalmilal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga; qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga; Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga; mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan xodimlarga ish haqi 100 foiz miqdorida to'lab beriladi.



"DEKRET PULI" BERILADIMI?

– Kelinim xususiy maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi bo'lib ishlaydi. Yaqinda homiladorlik va tug'uruqdan keyingi ta'tilga chiqishi kerak. Xususiy bog'chada ham "dekret puli" beriladimi?

Nodira ORIPOVA

– 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoniga muvofiq, budjet tashkilotlaridan tashqari barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-sentabrdagi "Davlat ijtimoiy sug'urta tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur Nizomga ko'ra, homiladorlik va tug'ish bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi hududiy ambulator-poliklinikaning akusher-ginekologi tomonidan beriladi, u nafaqani tayinlash va to'lash uchun asos hisoblanadi.

Nizomning 3-bobiga ko'ra, "Yagona reyestr" AT tomonidan har oyning 4 sanasiga qadar nafaqa bo'yicha to'lov ro'yxat (vedomost)lari AT "Xalq banki"ga taqdim etiladi hamda jamg'armaning g'azna hisobvarag'idan

zarur mablag'lar belgilangan tartibda AT "Xalq banki"ga o'tkazib beriladi. Ushbu bandeda ko'rsatilgan muddatning oxirgi kuni bayram va dam olish kunlariga to'g'ri kelganda, to'lov ro'yxat (vedomost)lari va zarur mablag'lar keyingi 2 ish kuni mobaynida AT "Xalq banki"ning tuman (shahar) bo'limiga taqdim etilishi va moliyalashtirilishi mumkin.



FARZANDIM UCHUN MODDIY TA'MINOT OLMOQCHIMAN

– Oilaviy sabablarga ko'ra, turmush o'rtog'im bilan birga yashamayman. Sababi, qaynonam bizni tinch yashashga qo'ymaydi. Bir nafar farzandim bor. U sakkiz oylik chaqaloq. Turmush o'rtog'im moddiy tomondan umuman yordam bermaydi. Farzandim uchun moddiy ta'minot olsam bo'ladimi?

Malika NURALIYEVA

– Oila kodeksining 117-moddasiga ko'ra, er-xotin bir-biriga moddiy yordam berish shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan e'tiboran uch yil davomida, o'rtadagi nogironligi bo'lgan bolani u o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar parvarishlashni yoki bolalikdan I guruh nogironligi bo'lgan o'rtadagi bolani parvarishlashni amalga oshirgan, yordamga muhtoj bo'lgan er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotindan (erdan) sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.



UY-JOY TA'MIRI UCHUN IMTIYOZ BORMI?

– Hozirda yashab kelayotgan uyimiz juda ta'mirtalab. Og'ir sharoitdagi, ehtiyojmand ayollarga uy-joy ta'miri uchun imtiyoz bormi?

Mahmuda G'AFFOROVA

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, "Ayollar daftari"ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvat-

lash bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Shunga ko'ra, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy uylarga joylashtirish va ularning uy-joylarini ta'mirlashga ko'maklashish belgilangan. Qarorga ko'ra, sektor ishchi guruhlari tomonidan tegishli mutaxassislar jalb qilingan holda, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning uy-joyi holati o'rganiladi. Shundan so'ng nuqson dalolatnomasi hamda ta'mirlash yoki qurilish materiallarini olib berish bo'yicha smeta ishlab chiqilib, "Ayollar daftari" jamg'armasi Vasiylik kengashiga kiritiladi.

Har bir uy-joyi ta'mirlash ishlari "Ayollar daftari" jamg'armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda mablag' ajratiladi. Vasiylik kengashi tomonidan ta'mirlash smetasi bo'yicha tegishli qaror qabul qilinib, mablag' ajratiladi hamda qurilish tashkilotiga (pudrat-chiga) yoki qurilish materiallari yetkazib beruvchi korxonaga o'tkazib beriladi. Bunda qurilish tashkilotiga (pudrat-chi) yoki qurilish materiallari yetkazib beruvchi korxonaga davlat xaridlarining elektron tizimi orqali aniqlanadi. Sektor rahbarlari tumanlar (shaharlar) qurilish bo'limlari bilan birgalikda mablag' ajratilgan vaqtdan boshlab ta'mirlash ishlari sifatli bajarilishini tashkil etadi va nazorat qiladi.



ALIMENTNI ISH JOYIDAN OLISH MUMKINMI?

– Ikki nafar farzandim bor. Bolalarimning otasi davlat tashkilotida ishlaydi. Lekin aliment to'lash bo'yicha doim muammo chiqadi, meni sarson qiladi. Shu sababdan, alimentni MIB orqali emas, turmush o'rtog'imning ish joyidan olsam bo'ladimi?

Oydin JO'RAYEVA

– Oila kodeksining 137-moddasida ish beruvchining (tashkilot ma'muriyatining) aliment ushlab qolish majburiyati belgilangan. Unga ko'ra, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish joyidagi ish beruvchi yoki pensiya, nafaqa, stipendiya olayotgan joyidagi tashkilot ma'muriyati aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvga yoki ijro varaqasiga asosan aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning ish haqidan va (yoki) boshqa daromadidan har oyda aliment ushlab qolib, aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsiga ish haqi to'langan va (yoki) boshqa daromadlar olingan kundan boshlab, uch kundan kechiktirmay aliment oluvchi shaxsiga aliment to'lashi yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning hisobidan unga, ya'ni aliment oluvchining hisob raqamiga aliment summasini o'tkazishi shartligi belgilangan.

TALABA YOSHLAR UCHUN

HUQUQSHUNOS ZAHMATI



O'RGANISH – O'RGANILADIGAN ISH

Huquqiy ta'lim oson egallanadigan bilim emas. Ko'pchilik huquqshunos bo'lish qonunlarni yodlashu sud amaliyotini o'rganish bilan bog'liq deb o'ylasa-da, muvaffaqiyatli yurist bo'lish bundan ham murakkabroq ko'nikmalarni talab qiladi. Yuristlar o'z mijozlariga samarali xizmat ko'rsatish uchun bir qator ko'nikmalarni rivojlantirishi, hamisha o'qib-izlanishi, o'rganishi zarur.

Yuridik izlanish har bir huquqshunos talaba egalashi kerak bo'lgan mahoratdir. U huquqiy masalalarni, qonunlarni, qoidalarni va sud amaliyotini o'rganishni o'z ichiga oladi. Huquqshunos talabalar o'z tadqiqotlarini samarali o'tkazish uchun onlayn ma'lumotlar bazasidan qanday foydalanishni o'rganishi kerak. Shuningdek, huquqiy manbalarni tahlil qilishni va tegishli ma'lumotlarni aniqlashni ham o'rganishlari kerak.

Yuridik yozuv huquqshunos talabalar egalashi kerak bo'lgan yana bir muhim mahoratdir. U arizalar, shikoyat xatlari va shartnomalar kabi huquqiy hujjatlarni yozishni o'z ichiga oladi. Huquq fakulteti talabalarini ishonarli va izchil yozishni o'rganishi kerak. Shuningdek, ular huquqiy atamalardan samarali foydalanishni o'rganishi va o'z dalillarini mantiqiy ravishda taqdim etishni bilishi kerak.

Analitik fikrlash huquqshunos talabalar rivojlantirishi kerak bo'lgan tanqidiy qobiliyatdir. U huquqiy masalalarni tahlil qilishni va huquqiy qoidalarni aniq faktlar orqali qo'llashni o'z ichiga oladi.

MUHIMI – MULOQOT MAHORATI

Muloqot mahorati muzokaralar va huquqiy nizolarni suddan tashqari hal qilishni o'z ichiga oladi. Yuridik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar bo'lajak yurist sifatida o'z mijozlari uchun qulay natijalarga erishish maqsadida qanday muzokaralar olib borish va samarali muloqot qilishni o'rganishi kerak. Muloqot jarayonida muzokaralar muhim ahamiyatga ega. Chunki u mijozning vaqti va pulini tejashi mumkin.

Mijoz bilan muloqot qilish ham juda muhim. Masalan, advokatlar o'z mijozlarining ehtiyojlari va tashvishlarini tushunish uchun ular bilan samarali muloqot qilishi kerak. Ular faol tinglashni, to'g'ri savollar berishni, mijozlar bilan aniq va halol muloqot qilishni o'rganishi kerak. Chunki advokat va mijoz o'rtasidagi o'zaro ishonchli munosabat ko'p narsani belgilaydi. Advokat o'z mijozining ehtiyojlari va tashvishlarini tushunishi orqaligina unga yanada yaxshi yuridik xizmat ko'rsatishi, tezroq yordam berishi mumkin.

Og'zaki targ'ibot ham huquqshunos talabalar egalashi kerak bo'lgan muhim mahoratdir. Bu sudda, muzokaralar yoki tinglov jarayonlarida, boshqa holatlarda og'zaki huquqiy dalillarni taqdim etishni o'z ichiga oladi. Huquq fakulteti talabalarini aniq va ishonchli gapirishni o'rganishi kerak. Shuningdek, sudyalari va boshqa advokatlarining savollariga samarali javob berishni ham o'rganishi shart. Sababi, bu ishda g'alaba qozonishda hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

VAQTNI BOSHQARISH NIMA UCHUN KERAK?

Vaqtini boshqarish huquqshunoslar uchun muhim mahoratdir. Huquq fakulteti talabalarini o'qish yukini muvozanatlash va akademik maqsadlariga erishish uchun vaqtlarini samarali boshqarishni o'rganishi kerak. Ayniqsa, vaqtini boshqarish advokatlar uchun juda muhim. Chunki ular belgilangan muddatlarga rioya qilish va har qanday sharoitda o'z mijozlariga sifatli yuridik xizmat ko'rsatish uchun o'z vaqtini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Bugungi raqamli asrimizda texnologik malaka, huquqshunoslar uchun muhim mahoratga aylanib bormoqda. Huquq fakulteti talabalarini huquqiy tadqiqot ma'lumotlar bazalari, ishlarni boshqarish dasturlari va elektron platformalar kabi huquqiy texnologiya vositalaridan qanday foydalanishni o'rganishlari kerak. Shuningdek, ular Microsoft Word va Excel kabi keng tarqalgan ofis dasturlaridan foydalanishni yaxshi bilishlari kerak.

Nodiraxon XATAMOVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti Xorijiy tillar kafedrasining o'qituvchisi

“KONTRAFAKTSIZ OY”



Joriy yilning 15-fevralidan 15-martigacha qadar “Kontrafaktsiz oy” oyligi o'tkazilmoqda. Oylilik doirasida kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasi oqibatida iste'molchilarga yetkaziladigan zarar, ularning inson salomatligiga salbiy ta'siri to'g'risida targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda.

Xususan, Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan yirik savdo markazlari va bozorlarda profilaktik tadbirlar olib borilib, aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan huquqbuzar shaxslarga nisbatan tegishli tartibda ta'sir choralarini qo'llanilmoqda.

Oylilik davomida olib borilgan o'rganishlar chog'ida 20 dan ortiq qonunbuzilish holati aniqlandi. Ularning aksariyati o'zganing tovar belgisidan huquq egasining rozilgisiz foydalanish, noqonuniy ravishda kontrafakt dori vositalari savdosi bilan shug'ullanishga doir. Qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ygan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortildi. Ayrim qonunbuzarlarga nisbatan taqdimnoma kiritilib, intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasi ta'minlandi.

Jumladan, “Uzum” hamda “Mobis” nomli tovar belgilaridan huquq egalari rozilgisiz foydalanganlik holatlari aniqlanib, javobgar shaxslarga nisbatan ta'sir choralarini qo'llanilib, huquqbuzarliklar bartaraf qilindi. Aniqlanayotgan yashirin ishlab chiqarish va kontrafakt mahsulotlarning aylanish holatlariga chek qo'yish maqsadida iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan hamkorlikda tadbirlar o'tkazilmoqda.

Hasan UZOQOV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



O'QUV TA'TILI MEHNAT TA'TILI HISOBIDAN BERILADIMI?



– Men joriy o'quv yilida oliygohga 2-mutaxassislik bo'yicha o'qishga kirganman. Shu bois dars mashg'ulotlari paytida menga o'quv ta'tili berilgan edi. Endi mehnat ta'tiliga chiqaman, desam kadrlar bo'limidagilar “Siz bu yilgi ta'tildan o'qish paytida foydalandingiz” deb ta'til bermayapti. Shu to'g'rimi?

Shodiya MAHMUDOVA,
Surxondaryo viloyati



– Bu noto'g'i amaliyot, albatta. Ya'ni, xodimga “O'quv ta'tili mehnat ta'tili o'rniga o'tadi” deyilishi mutlaqo qonunga zid. Chunki ijodiy ta'tillar va har yillik mehnat ta'tillari bir-biridan alohida mustaqil ta'til turlari hisoblanadi.

Mehnat kodeksining 383-moddasida mehnat shartnomasi bo'yicha ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarida tahsil olib, o'quv rejasini bajarayotgan xodimlarga ish joyi bo'yicha o'rtacha ish haqi saqlangan holda o'quv ta'tili, qisqartirilgan ish haftasi hamda mehnat to'g'risidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan o'zga kafo-latlar berilishi nazarda tutilgan.

Kodeksning 385-moddasiga ko'ra, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qiyotgan xodimlarga laboratoriya-imtixon sessiyalarida ishtirok etgan davr uchun o'quv ta'tillari 1-2-bosqich talabalariga – kamida 30 kun, 3 va undan yuqori bosqichlarda o'qiyotganlarga – 40 kalendar kun mud-datga o'rtacha ish haqi saqlangan holda har yili beriladi.

Eng muhimi, ishni o'qish bilan birga olib borayotgan xodimlarga navbatdagi mehnat ta'tillari ular o'quv ta'tillaridan foydalanganligidan qat'i nazar beriladi.

Savolga Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Maftuna G'AFFOROVA javob berdi

6 TALQIN

Insoniyat yaratilibdiki, hayotning turli jabhalarida turli xil muammolarga duch keladi. Shunday muammolardan biri mehnat qonunchiligida mavjud bir masala bo'lib, bu holat ko'pchilikni o'ylantiradi. Amaliyotda esa, turli xil nizolarga sabab bo'lib kelmoqda. Keling, yaxshisi, hammaning boshida bor bo'lgan, hamma ham duch kelishi mumkin bo'lgan mazkur masalani yaqindan tahlil qilib ko'ramiz.

KIM KO'PROQ HAQLI?

Odatda, xodim vafot etganidan keyin u vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqi miqdori, foydalanilmagan ta'tillar uchun kompensatsiyalar mazkur xodimning yaqinlariga beriladi. Amaliyotda shunday holatlar uchrayaptiki, masalan, aksariyat hollarda xodim ishlagan tashkilot ish haqi va kompensatsiya pulini uning turmush o'rtog'iga (ayoliga) beradi. Lekin shunday holatlar ham bo'lyaptiki, xodimning ota-onasi ham ishxonasi kelib uning oxirgi ish haqi bo'yicha hisob-kitoblarni talab qilyapti. Bunday paytda sudga murojaat qilish bilan tahdid qilish holatlari ham uchrayaptiki, bu masalaning qonuniy tomonlarini o'rganishimiz uchun yetarlicha asos borligini ko'rsatmoqda.

Darhaqiqat, xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqini aynan kimga to'lab berish kerakligini to'g'ri belgilash juda muhim masaladir. Aks holda, sudlashishgacha boradigan nizo yuzaga kelishi mumkin.

Mehnat kodeksida mazkur masalada kimlar ustuvor huquqqa ega ekanligiga aniqlik kiritilmagan. Kodeksning 255-moddasiga muvofiq, xodim vafot etgan kunga qadar olinmagan ish haqi uning oila a'zolariga yoki xodim vafot etgan kunda marhumning qarag'ida bo'lgan shaxsga berilishi belgilab qo'yilgan. Bunda ish haqini to'lash ish beruvchiga tegishli ariza, xodimning vafot etgani to'g'risidagi guvohnomaning ko'chirma nusxasi hamda uning asl nusxasi taqdim etilganda amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 5-moddasiga muvofiq, oila a'zolariga quyidagilar kiradi: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar). Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida qonuniy tartibda nikohdan o'tgan shaxslar er yoki xotin deb hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikohda bo'lgan ayol marhumning maoshini talab qila olmaydi. Shuningdek, nikoh rasman bekor qilingan sobiq xotini, agar u vafot etgan kunga qadar xodim bilan birga yashagan taqdirda ham, xodimning vafotidan keyingi ish haqini olishga haqli emas.

Xodimning qaramog'ida bo'lganlar – bu xodimning to'liq ta'minotida bo'lgan yoki undan olib turilgan moddiy yordam uning hayot kechirishi uchun asosiy va doimiy manba bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar. Qaramog'ida bo'lganlik fakti fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, ish (xizmat) joyi ma'muriyati, ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan berilgan hujjatlar, shuningdek, guvohlarning ko'rsatuvlari bilan tasdiqlanishi mumkin.

Mazkur vaziyatdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, xodimga tegishli bo'lgan ish haqini ish beruvchiga birinchi bo'lib murojaat qilgan va kerakli hujjatlarni taqdim qilgan oila a'zosi yoki qaramog'ida shaxs olish huquqiga egadir. Agar ko'rib chiqilayotgan vaziyatda xodimning ayoli birinchi bo'lib pul uchun murojaat qilgan va kerakli hujjatlarni taqdim etgan bo'lsa, ayoli yoki ota-onasi murojaat qilgan bo'lsa, ota-ona olishga haqli, degan xulosaga kelishimiz maqsadga muvofiq.

Mazkur holatda o'lim to'g'risida guvohnoma, qarindoshlik faktini belgilovchi ma'lumotnoma, oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinishi kifoya. Ish beruvchi vafot etgan xodimning ish haqini qarindoshiga tegishli ariza berilgan kundan e'tiboran yetti kalendar kundan kechiktirilmay to'lab berishi kerak.

Najmiddin ESHMURZAYEV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh yuriskonsulti



Konstitutsiyamizning 24-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi.

CHET EL FUQAROSI BO'LGAN SHAXSLARNING OILAVIY MUNOSABATLARI QANDAY TARTIBGA SOLINADI?

Bunday huquqlardan biri bu chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning oilaviy munosabatlaridir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasiga asosan balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paktning 23-moddasiga ko'ra, mazkur Paktga ishtirok etuvchi davlatlar nikohdan o'tishda, nikohda bo'lgan vaqtda va u bekor qilinayotganda er-xotinlarning huquq hamda majburiyatlari tengligini ta'minlash uchun zarur choralar ko'rish lozim. Nikoh bekor qilingan holatda barcha bolalar zarur tarzda himoya qilinishi hisobga olinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi qonuni O'zbekistonda chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning oilaviy munosabatlaridan biri nikohni qayd etish masalasidir. Oila kodeksining 234-235-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi

fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanadi va teng majburiyatlarga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu kodeksning 16-moddasida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalarini"ning 5-bandiga asosan FHDY organlari tegishli yozuvlar orqali tug'ilganlik, nikoh tuzish, nikohdan ajralish va o'lim haqida fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etadi.

Fuqarolik holati dalolatnomasini qayd ettirish masalasida konsulga murojaat etgan shaxslardan biri O'zbekiston fuqarosi, ikkinchisi esa chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan hollarda fuqarolik holati dalolatnomasini qayd etish, agar O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi faoliyat ko'rsatayotgan davlatning qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga zid bo'lmasagina amalga oshiriladi.

Ushbu Qoidalarning 89-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq FHDY organlarida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining MDH mamlakatlari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikohini qayd etish hamda chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohni qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi. O'zbekiston fuqarosi va chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohni qayd etish agar chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning O'zbekiston Respublikasida bo'lish vizasi nikoh tuziladigan kunda haqiqiy bo'lsagina amalga oshiriladi.

Muzaffar NIYAZMETOV,
Toshkent shahar adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

☞ SUD ZALIDAN

Ancha paytdan buyon tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan andijonlik hamyurtimiz Dilshodbek Nishonov (ism-shariflar o'zgartirilgan) yangi noturar joy olib, o'z ishlarini rivojlantirmoqchi bo'ladi. Bundan xabar topgan, Izboskan tumanida yashovchi, muqaddam firibgarlik jinoyatini sodir etib sudlangan bo'lsa-da, lekin ko'zi ochilmagan Pathiddin Bayramov va uning hamtovog'i Anvar Maxsudov (jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudining 2023-yil 23-iyundagi hukmi bilan aybli deb topilgan)lar nima qilib bo'lmasin, Dilshodbekning pullarini qo'lga kiritish payiga tushishadi.

FIRIBGARLAR

Shu maqsadda 2019-yil 11-iyun kuni D. Nishonov bilan Andijon shahar A. Cho'lpon Shohko'chasida qurilayotgan ko'p qavatli uy-joy binosining 1-qavatida joylashgan, 400 metr kvadratdan iborat savdo do'konini eshik-derazalari o'rnatilmagan hamda ichki qismi pardozlanmagan holatida 1 milliard 600 million so'mga sotilishini kelishishadi. Kelishuvga ko'ra, xaridor oldindan 30 foiz – 480 million so'mlik to'lovni amalga oshirishi, qolgan 1 milliard 120 million so'm mablag'ni esa bino foydalanishga topshirilganidan so'ng kredit mablag'lari hisobidan to'lab berishi, keyin mulk uning nomiga rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan. Dilshodbekni ishontirish uchun ustamon yigitlar soxtakorlik ham qilishadi. Aniqrog'i, rasmiy hujjat hisoblangan – "Aziya Maks" MChJ hamda tadbirkor D. Nishonov o'rtasida imzolangan 1-sonli oldi-sotdi shartnomasini qalbakilashtirib, unga taqdim etishgan.

Shundan keyin D. Nishonov 2019-yil 21-iyundan 2019-yil 1-iyulga qadar "Aziya Maks" MChJ hisob raqamiga 480 million so'm pulni o'tkazib

beradi. Biroq Pathiddin va Anvar pullarni shaxsiy ehtiyojlari yo'lida sarflab yuborishsa-da, bergan va'dalarining ustidan chiqishmaydi. Hattoki, oradan 2 yilga yaqin vaqt o'tsa ham, ular turli bahonalarni ishlatib, rasmiylashtirish ishlarini paysalga solib yuraveradi. Yoki xaridorga pulini ham qaytarishmaydi. Binobarin, jabrlanuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga murojaat qiladi.

Albatta, mazkur murojaatni tekshirish mobaynida P. Bayramov va A. Maxsudovlarga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Oqibatda jinoyat ishlari bo'yicha Baliqchi tuman sudi P. Bayramovni Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topib, 8 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum etdi. Shuningdek, sud hukmda firibgar hamtovoqlardan jabrlanuvchi foydasiga solidar tartibda 480 million so'mni undirish ham belgilandi.

Furqatjon SOBIROV,
jinoyat ishlari bo'yicha Baliqchi tuman sudi raisi

2023-yil 20-oktabrda Vazirlar Mahkamasining “Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan bir nechta normativ-huquqiy hujjatlardagi normalar Hukumatning yagona normativ-huquqiy hujjatiga mujassamlashtirildi. Jumladan, “Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari to‘g‘risida”gi nizom, “Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari xodimlarining sonini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizom, “Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari”, “Tug‘ilganlikni qayd etish bilan bog‘liq kompleks davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”, “O‘limni qayd qilish bilan bog‘liq kompozit davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti” yagona normativ-huquqiy hujjatga birlashtirildi.

Muhimi – qulaylik va tezkorlik



Islohotlar davomida aholiga yanada qulaylik yaratish, ortiqcha qog‘ozbozlikka barham berish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartiblarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tug‘ilganlikni tibbiyot muassasalari orqali fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarida qayd etish tartibi joriy etildi. Tug‘ilganlik holati fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlarida qayd qilingani haqida tibbiyot muassasalari tomonidan beriladigan QR-kod (matrik shtrixli kod) tasviri tushirilgan ma‘lumotnoma tug‘ilganlik haqidagi gerbli guvohnomaga tenglashtirildi. Bu esa aholining ortiqcha ovoragarchiligiga, qo‘shimcha vaqt hamda sarf-xarajatlar qilishiga barham bermoqda.

Aholiga fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish bilan bog‘liq davlat xizmatlarini ko‘rsatishdagi islohotlar 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident farmonida nazarda tutilgan o‘zgarishlar bilan yanada takomillashtirildi.

“

Mazkur farmonning ijrosini amaliyotga tatbiq etish hamda aholiga FHDY sohasi bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatilishida byurokratik to‘siqlarni yo‘qotish, ortiqcha qog‘ozbozlik va ovoragarchiliklarga barham berishga qaratilgan yana bir muhim o‘zgarishlardan biri – bu tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani olish uchun masofadan turib onlayn ariza berish va taqqor guvohnomani pochta aloqa vositalari orqali manzilgacha yetkazib berish imkoniyati qaratilgan bo‘ldi.

Endilikda, fuqarolar o‘z vaqtini davlat tashkilotlariga borish, navbatda turish yoki qog‘oz hujjatlarni to‘ldirishga sarflamaydi. Tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani olish uchun osongina my.gov.uz portali orqali ariza yo‘llashi va guvohnomani masofadan olishi mumkin. Buning uchun esa ariza beruvchidan hech qanday hujjat talab etilmaydi. Bundan tashqari, my.gov.uz portali orqali ariza holatini kuzatish imkoniyati mavjud. Natijada aholi jarayondan doimiy xabardor bo‘lib turadi.

Bundan tashqari, avvalgi tartibda ariza berilganidan keyin tayyor bo‘lgan guvohnomani olish uchun ham FHDY organlari binosiga borish uchun vaqt va sarf-xarajatlar qilishga to‘g‘ri kelar edi. Endilikda, aholi guvohnomani FHDY organlari binosiga bormasdan, o‘zi ko‘rsatgan manzilda qabul qilib oladi. Yana bir yengillik shundaki, mazkur davlat xizmatidan my.gov.uz portali orqali foydalanilganda, 10 foiz arzon to‘lov to‘lanadi.

Shu kunlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish maqsadida Adliya vazirligi tashabbusi bilan “Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi” huquqiy aksiyasi o‘tkazilmoqda. Huquqiy aksiya doirasida tug‘ilish, yaqin qarindoshining o‘limi qayd etilmagan shaxslar, nikoh, ajrim, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ko‘chmas mulklarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan shaxslarga huquqiy ko‘maklashish maqsad qilingan.

Ushbu huquqiy aksiya doirasida tegishli hujjatlarga ega bo‘lmagan shaxslar respublika miqyosida xatlovdan o‘tkazilmoqda. Shuningdek, fuqarolarning ushbu turdagi murojaatlari joylarda tashkil etilgan maxsus shtablar yoki 1148 “Ishonch telefoni” orqali tezkorlik bilan qabul qilinmoqda. Sayyor qabullar tashkil etilmoqda. Kelib tushgan barcha murojaatlar o‘rganib chiqilib, muammolarni qonuniy hal etishga ko‘maklashilmoqda.

Samira SAID-GAZIYEVA,
Yashnobod tuman adliya bo‘limi
FHDY bo‘limi mudiri

Fakt va raqamlarga nazar solganda, muammolarni tahlil qilganda ayon bo‘ldiki, keyingi yillarda bilim va ilm o‘g‘irlanmoqda, ya‘ni yosh avlodga bilim berish darajasi yuqori emas. Maktabgacha ta‘lim, maktab ta‘limi va oliy ta‘lim tizimi mutasaddilari buni shunday tushunishlari kerak. Ya‘ni, o‘z dargohlaridan bilimli tarbiyalanuvchi va talabalar ko‘proq chiqib, ko‘rsatkichlar belgilanganidan ortiqroq bo‘lsa, bu yaxshi, ammo ko‘rsatkich tushib ketib, ilmsiz va tarbiyasiz yoshlarni “tarbiyalagan” bo‘lsa, bu mas‘ullar ana shu yoshlarga ma‘naviy zarar yetkazgan, deb baholanib, keltirgan zarar qiymatini hisoblab chiqarish kerak bo‘ladi va ularni jinoiy javobgarlikka tortish darajasida mas‘uliyatni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Chunki har bir rahbar lavozimga tayinlanayotgan paytda zimmasida qanday mas‘uliyatli vazifalar borligini bilishi va tushunishi shart!



NOANIQ KO‘RSATKICHLAR ORTIDA NIMA BOR?

Tabiiy savol tug‘iladi, bunday zarar qanday aniqlanadi? Masalan, bitta yigit yoki qiz o‘qishga kira olmasdan ko‘chada qolsa va ishsiz yursa, davlat unga qancha sarf-xarajat qiladi, o‘sha fuqaro qing‘ir yo‘llarga kirib ketib, boshqalarni o‘zi bilan ergashtirganda-chi, jamiyatga qanchadan-qancha zarar keltirishi mumkin.

Buni Qibray tuman maktabgacha va maktab ta‘limi muassasalari misolida sharhlaydigan bo‘lsak, tumanda jami 90 ta (36 ta davlat, 11 ta xususiy, 1 ta davlat xususiy sherikchilik asosida, 42 ta oilaviy) maktabgacha ta‘lim, 43 ta davlat (3 ta nodavlat) maktablari mavjud bo‘lib, ularda 8 ming 737 nafar tarbiyalanuvchi va maktablarda esa 22 ming 607 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda.

“

Ma‘lumotlarga qaraganda, o‘tgan 2023-yilda maktabgacha va maktab ta‘limi muassasalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ish haqi uchun jami 146 milliard 878 million 62 ming so‘m miqdorda mablag‘ ajratilgan. Bu mablag‘ turli tadbirlarga va xodimlar ish haqiga ishlatilgan.

Tarbiyalanuvchilarning 2 ming 693 nafari maktablarga ta‘lim olish uchun o‘tkazildi. 1 ming 400 nafar maktab bitiruvchilarning 652 nafari oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilinib, 75 nafari esa kollej va texnikumlarda o‘qishni davom ettirmoqda. 7 nafari chet elga ko‘chib ketgan. 6 nafari tadbirkorlik bilan shug‘ullana-yapti. Qolgan 660 nafar bitiruvchilarning taqdiri turli sohalarda ish bilan ta‘minlangan, degan noaniq ko‘rsatkich ostida ifodalangan. Ammo adliya idoralarining yoshlar hayotiga, qiziqish va muammolariga alohida e‘tibori bu raqamlar haqiqatdan ancha yiroqda degan xulosaga olib keldi.

Yuqoridagi raqamlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ayrim maktablarda yetarli darajada bilim berilmagani, ta‘lim-tarbiyaga zarur e‘tibor qaratilmagani oqibatida yoshlarning bor-yo‘g‘i 46,5 foizi oliy ta‘lim dargohlariga o‘qishga kira olgan xolos. Ta‘limga panja orasidan qarash, “bugun o‘tsa bo‘ldi” qabilida ish tutish kelajakka katta xavf tug‘dirishi, jamiyatni juda katta ma‘naviy, ma‘rifiy tanazzulga olib kelishi tabiiy.

Kuch – bilim va tafakkurda ekanini unutmaylik. “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilingan joriy yilda kelajagimiz egalarini buyuk allomalimiz ta‘limotiga sodiq qolgan holda bilimli va vatanparvar qilib tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimiz bo‘lsin!

Davlatnazar MATRASULOV,
Qibray tuman adliya bo‘limi boshlig‘i

8 INTELLEKTUAL MULK

Ma'lumki, kontrafakt mahsulotlar intellektual mulk huquqlarini buzib, asl belgi egasiga moddiy zarar yetkazishi, uning bozordagi mahsulot aylanmasi hajmiga va kelib tushadigan foydasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, iste'molchilarni chalg'itib, sodiq mijozlarni yo'qotadi.

Bir tadbirkorning HUQUQINI HIMOYA QILISH BOSHQA TADBIRKORGA ZARAR YETKAZMASLIGI LOZIM

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-moddasiga asosan, o'zganing tovar belgisidan yoki adashtirib yuborish darajasida ular bilan o'xshash bo'lgan belgilardan shu turdagi tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan qonunga xilof ravishda foydalanish – huquqbuzarlik ashyolari musodara qilinib, huquqbuzarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n



besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, huquqbuzarlik ashyolari musodara qilingan holda bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima jazosiga tortiladi.

Vaholanki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasi 11-bandida ushbu kodeksning 177-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni birinchi marta sodir etgan tadbirkorlik subyektining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar yo'l qo'yilgan buzilishlarni huquqbuzarlik aniqlangan paytdan e'tiboran o'ttiz kunlik muddatda ixtiyoriy ravishda bartaraf etgan va (yoki) yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozimligi belgilangan.

Masalaning e'tiborli jihati shundaki, amaliyotda sudlar tomonidan kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqargan shaxslarga nisbatan ma'muriy ishlar aynan kodeksning 271-moddasi bilan tugatilmoqda. Asosiy vaj sifatida esa huquqbuzarga ushbu moddada belgilangan muddat taqdim etilmagan ko'rsatilmoqda. Ayni normadan tushunilishicha, agar ma'lum bir shaxsning kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarayotgani yoki ushbu turdagi mahsulotlarni fuqarolik muomalasiga kiritayotgani aniqlansa, o'sha shaxsga huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha 30 kun muddat berilishi lozim. Biroq amaliyotda, huquqbuzar tomonidan ishlab chiqarilib, savdoga chiqarishga tayyorlab qo'yilgan kon-

trafakt mahsulotlarni bozorga chiqarib yuborilmasligini nazorat qilish imkonsiz. Shundan kelib chiqqan holda, huquqbuzarlik sodir etgan subyektlarga 30 kunlik muddat berilishi (MJTKning 271-moddasi talablaridan kelib chiqqan holda) kontrafakt mahsulotlarning bozorda tarqalib ketishiga, bu orqali ushbu mahsulotlar iste'molchilarga yetib borishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-moddasida huquqbuzarlik ashyolari musodara qilinishi ham belgilab qo'yilgan. Lekin huquqbuzar tadbirkorga qo'shimcha muddat berilishi tabiiyki ushbu talabning ham bajarilmasligiga olib keladi. Sabab esa oddiy – kontrafakt mahsulotlarning iste'molga chiqarib yuborilishini nazorat qilib bo'lmaydi.

Shunday ekan, kodeksning 271-moddasi 11-bandida qayd etilgan moddalar orasidan 177-moddani chiqarib tashlash lozim. Shundagina, huquqbuzarlik holatiga tez va samarali ta'sir choralari qo'llaniladi hamda holat bartaraf etiladi. Ammo bir tadbirkorning huquqlarini himoya qilish ortida boshqa tadbirkorga zarar yetkazilmasligi lozim.

Sanjarbek TURSUNOV,
Adliya vazirligi Intellektual mulk departamenti bosh maslahatchisi

ADLIYA FAXRIYSI

Odiljon Satvaldiyevni asakaliklar yaxshi taniydi va alohida hurmat qiladi. Oddiy oiladan chiqqan yigit o'z mehnat faoliyatini 18 yoshida Asaka shahar 84-sonli avtokorxonada haydovchilikdan boshladi. Haydovchilikdan davlat notariusigacha bo'lgan davr mobaynida qancha yo'llardan, qancha sinovlardan o'tdi.



ODDIYLIKDAN QADR TOPGANLAR

Qahramonimiz keyinchalik Asakadagi 1-sonli Paxta tozalash zavodida haydovchi, komehdant, metodist, klassifikator va yong'in xavfsizlik bo'limining boshlig'i vazifalarida xizmat qildi. Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini sirtidan o'qib tamomlagach, shu zavod huquqshunosi lavozimiga ko'tarildi, o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritdi. Mehnat faoliyatining

15 yili aynan Paxta tozalash zavodi bilan bog'liq. Bu yerda mehnat ko'nikmasi, muomala madaniyatini, kasb malakasini oshirdi. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilishning o'ziga xos murakkab tomonlarini qonunchilikka asosan o'rganib, ishchi-xodimlarning manfaatini himoya qildi.

O. Satvaldiyev keyinchalik Asaka tuman davlat soliq inspeksiyasining huquqshunos-maslahatchisi bo'lib ishladi. Soliq qonunchiligidagi yangiliklarni hayotga tatbiq etishga o'z hissasini qo'shdi.

1996–2004–yillar Marhamat tuman davlat notarial idorasining notariusi, qator yillar Marhamat tuman 2-sonli davlat notarial idorasining notariusi, Asaka tuman 3-sonli davlat notarial idorasining notariusi vazifasida elga xizmat qildi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashga aholining huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirishga hissa qo'shdi. Huquqiy maslahatga muhtoj fuqarolarga huquqiy yordam berishni o'z burchi, insoniylik vazifasi deb bildi.

Faxriy huquqshunos doimo odamlar orasida. U bugun ham mahalla, maktab va muassasalarda bo'ladigan uchrashuvlarda huquqiy islohotlar maqsadini, qonun ustuvorligining tub mohiyatini fuqarolarga tushuntirishda adliya idoralari eng yaqin yordamchi.

Odiljon akadek hamyurtlari e'tiborida, oila davrasida, shogirdlar ehtiromida qutlug' yoshni qarshilab, taqdiridan minnatdor bo'lib yashash har kimga ham nasib etsin!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

E'LONLAR

Navoiy viloyat adliya boshqarmasi tomonidan advokat Abdirashitov Olim Abdimajitovichning advokatlik maqomi ichki ishlar organlariga xizmatga tayinlangani munosabati bilan boshqarmaning 2024-yil 22-fevraldagi 48-um-sonli buyrug'iga asosan to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 15²-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 5-martdagi 53-um-son buyrug'iga asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh. Xudayboqovga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 15 kun muddatga (2024-yil 8-martdan) to'xtatildi.

Adliya vazirligi jamoasi vazirlikning Birinchi bo'lim boshlig'i Fayzulla Pardayevga opasi **Dilbar PARDAYEVA**ning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Adliya vazirligi jamoasi Iqtisodiy qonunchilik boshqarmasi bo'lim boshlig'i Xidirali Sodiqovga otasi **Sodiq MURODOV**ning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Adliya vazirligi jamoasi Inson resurslari boshqarmasi boshlig'i Shuxrat Qo'chqorovga singlisi **Dilfuza QO'CHQOROVA**ning vafot etgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

INSON va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olinganBosh
muharrir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqrib
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraji – 4120
Buyurtma – 803Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5